



IQTISOD VA MOLIYANING AMALIY MUAMMOLARI O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA UNI BAHOLASH SHAKLLARI MAMLAKATIMIZDA TURIZM ISLOHOTLARI – RAQAMLARDA

Allayorov Isroil Xaykalovich¹

Zokirova E'zoza Sarvar qizi²

¹Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida katta o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

²Iqtisod yo'nalishi 3-bosqich 06-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14902144>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda so'nggi yillarda turizm sohasidagi tub islohotlar, qilingan amaliy ishlar va uning natijasi, nufuzli Xalqaro tashkilotlarning e'tibori va e'tirofi, xalqaro reytinglardagi o'rnimiz, respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlar soni va ularga yaratilgan shart-sharoitlar va kelgusida qilinishi mumkin bo'lgan ustuvor vazifalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Modernizatsiya, mexmonxona infrastrukturasini, Vatandosh, «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog'i», «Turizm ovuli», «Xiva deklaratsiyasi», «turizm poytaxti», «O'zbekiston – 2030».

Аннотация: В данной статье рассматриваются фундаментальные реформы в сфере туризма в нашей стране за последние годы, практическая работа и ее результаты, внимание и признание престижных международных организаций, наше место в международных рейтингах, количество туристов, посещающих нашу республику и обозначены созданные для них условия и приоритетные задачи, которые можно решить в будущем.

Ключевые слова: Модернизация, гостиничная инфраструктура, Ватандош, «Туристический квартал», «Туристическая деревня», «Туристический парк», «Хивинская декларация», «Столица туризма», «Узбекистан – 2030».

Abstract: This article examines the fundamental reforms in the tourism sector in our country in recent years, practical work and its results, attention and recognition of prestigious international organizations, our place in international rankings, the number of tourists visiting our republic and outlines the conditions created for them and priority tasks that can be solved in the future.

Key words: Modernization, hotel infrastructure, Vatandosh, “Tourist quarter”, “Tourist village”, “Tourist park”, “Khiva declaration”, “Capital of tourism”, “Uzbekistan – 2030”.

Kirish

So'nggi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi, mamlakatimizda turizm sohasida katta yutuqlarga erishildi. Ushbu sohani modernizatsiya qilish, hududlarimizda transport va mexmonxona infrastrukturasini yaxshilash, hamda normativ-huquqiy bazani mukammallashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Respublikamizga xorijiy turistlarni yanada ko'proq jalb qilish maqsadida viza rejimini soddalashtirish chora-tadbirlari, yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish, soha bilan bog'liq loyihalarga investitsiya kiritish, yirik tadbirlarni o'tkazish kabi amaliy ishlar olib borildi. 2017 yildan bugunga qadar prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligidagi turizm sohasida yechimi kutayotgan muammolar bo'yicha samarali islohotlar olib borildi va natijada ortda qolgan 7 yil mobaynida katta natijalarga erishildi.¹ Turizm sohasida ko'plab investitsiya loyihalari amalga oshirilib, tarmoqda yangi ish o'rinlari yaratilib, xalqimizning bandligi ta'minlanmoqda. Masalan, 2023 yilda umumiy qiymati 9,5 trln. so'mlik 508 ta loyiha amalga oshirilganligi hisobiga jami 9492 ta yangi ish o'ri ni yaratildi, 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta xostel faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, 452 ta oilaviy mehmon uyi tashkil qilinib, ularning umumiy soni 3 458 taga yetdi. Turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida ularning soni 2649 taga yetdi.

Mamlakatimizda ko'plab yangi hashamatli mehmonxonalar, jumladan, milliy mehmonxonalar tarmog'i shakllandi. Jami 1046 ta xorijiy va maxalliy turistlarni joylashtirish ob'ektlari jumladan, mehmonxonalar,

¹ Kun.uz



pansionatlar, mehmon uylari, tashrif buyuruvchilar uchun yotoqxonalar va boshqalar mavjud bo'lib, ularning 28 foizi bir yulduzdan besh yulduzgacha reyting toifasiga ega. Bu mehmonxonalarning 58 foizi Toshkent shahrida joylashgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya jalb qilish hamda raqobatbardosh xizmatlarni yo'lga qo'yishga berilgan e'tibor natijasida turizm bozorimizga Hilton, Marriott, Hyatt, Wyndham, Inter Continental Hotels Group kabi jahonning yetakchi mehmonxona brendlari kirib keldi. Ular nafaqat poytaxtimiz Toshkentda, balki, Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlariga ham qiziqish bildirib, o'z faoliyatlarini tashkil qilishni rejalashtirmoqda. Ayni paytda 93 ta xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 ta davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 ta davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish, shuningdek, 76 ta davlat uchun turistik viza berishning yengillashtirilgan tartibi belgilandi. 55 yoshga to'lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatga O'zbekistonga keluvchi Xitoy, AQSh va Viyetnam fuqarolari uchun vizasiz kirish rejimi joriy qilindi. Bundan tashqari, «Vatandosh», «Student visa», «Academic visa», «Medical visa» va «Pilgrim visa» kabi yangi kirish viza turlari belgilandi.

Har bir xorijiy turistning respublikamiz hududida bevosita sayohat xarajatlaridan tashqari sarflaydigan o'rtacha mablag' summasi 2017 yilda 197 AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilda 400 AQSh dollariga yetdi va turizm eksporti hajmi 2023 yil 9 oyida 1,72 mlrd dollarga yetdi. Mahalliy (ichki) sayyohlar soni ham 2017 yilga nisbatan 107 foizga o'sib, 14,9 million nafarni tashkil qildi. Mehmon o'rinlari soni 2017 yildagi 37 mingtadan 3,4 barobarga ko'payib, 128 mingtaga yetdi. 2017 yilda 749 ta turistik tashkilot va turagentlar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 2404 taga yetdi. Gid-ekskursovodlar soni esa 574 tadan 2864 taga yetdi.

Respublikamizning turizm salohiyati yuqori bo'lgan aholi maskanlariga «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog'i» va «Turizm ovuli» maqomini berish va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilindi. Jumladan, birinchilardan bo'lib Samarqand tumani Konigil qishlog'iga 52 ta hunarmandchilik va dam olish maskanlari mavjud bo'lgan «turizm qishlog'i» tashkil etildi, Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi Sentob hamda Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi Ertosh-soy va Ovjazsoy, Angren shahrining Lashkarak va Parkent tumanining Kumushkon, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi G'yelon, Boysun tumanining Omonxona qishloqlariga «turizm qishlog'i» maqomi berildi. Ushbu qishloqlarga «turizm qishlog'i»ning berilishi mahalliy aholi vakillarini doimiy ish bilan ta'minlash imkonini beradi. Yana o'nlab qishloq va tarixiy mahallalarimizga «turizm qishlog'i» va «turizm mahallasi» maqomini berish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy merosini bir-biriga o'zaro bog'liq sifatida targ'ib qilish bo'yicha tashabbusiga asosan UNESCO'ning «Xiva deklaratsiyasi» qabul qilindi. Islom hamkorlik tashkilotining 2024 yildagi XI sessiyasida Xiva 2024 yil «Islom dunyosining turizm poytaxti» deb e'lon qilindi. Turkiy davlatlar tashkilotining turizm vazirlarining yig'ilishida Qo'qon shahriga «turizm poytaxti» nomi berildi. «Jahon musulmon sayyohlari indeksi» reytingida 32-o'rindan 22-o'ringa ko'tarilib, «eng jozibador» hamda «xavfsizlik va bag'rikenglik darajasi yuqori» bo'lgan 10 ta mamlakat qatoriga kirdi. Yildan-yilga mamlakatimizga sayyohlar soni tobora ko'payib borayotganini hisobga olsak, bu juda munosib e'tirofdir. Mamlakatimizda turizmning rivojlanishi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashimizni ta'minlamoqda. Masalan, "Jahon musulmon sayohati indeksi" (GMTI-2023) xalqaro ziyorat turizmi reytingida O'zbekiston 140 ta mamlakat ichida 13-o'rinni egalladi. "Halal In Travel Awards 2023" tadbirida Xiva shahri "Yilning islom merosi turizm manzili" sovrinini qo'lga kiritdi.

2023 yilda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog'i "Best Tourism Village 2023 Awards" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi. Bundan tashqari, "Lonely Planet" xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan 2024 yil uchun "O'zbekiston – eng yaxshi sayohat maskani" nominatsiyasi g'olibi bo'lganligi davlatimizga va xalqimizga bo'lgan yuksak e'tibor va xurmat natijasidir.

O'zbekistonning 2024 yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi davlatlar ro'yxatiga kiritilishi va "World of Statistics" tomonidan bu haqda e'lon qilinishi, mamlakatimizda xorijiy turistlar soni ortishi va turizm eksporti



hajmining oshishiga xizmat qiladi. Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro maydonda yanada tanilishiga yordam beradi. Mamlakatimizda turizmning uchta asosiy turi mavjud bo'lib, bular kirish, chiqish va ichki turizmdir. Kirish va ichki turizmga asosiy va maxsus turistik mahsulotlar kiradi. Turistik diqqatga sazovor joylarga ekskursiyalar; mehmonxonalar, dam olish maskanlari, kurortlar, sanatoriyalar, sayyohlik qishloqlari, uy-lagerlar, lagerlarda joylashtirish, milliy taomlar va vinolarni tatib ko'rish, festivallar va bayram tadbirlarida ishtirok etish, butun mamlakat bo'ylab qulay harakat qilish, shuningdek, sayohat va dam olishning barcha turlari sport, etnik, yoshlar, ekologik, gastronomik, tibbiy, madaniy, tadbir, ziyorat, adabiy, qishki, velosport va boshqa turizm turlariga bo'lish mumkin. Ularning ayrimlari uchun mavsumiylik, bu yo'nalishni tanlashda e'tiborga olish kerak. O'zbekistonga kelgan sayyohlar o'z maqsadlari va yil uchun rejalashtirilgan byudjetga muvofiq, yolg'iz, do'stlari yoki oilasi bilan yoki sayohatchilarni oldindan rejalashtirilgan marshrut bo'ylab qiziqarli va hayajonli joylarga olib boradigan gid bilan sayohat qiladilar. Mavjud sayyohlik kompaniyalari kichik bir kunlik tor maqsadli turlardan tortib ko'p kunlik murakkab tur yo'nalishlarigacha, jumladan, mamlakatimizning eng muhim va mashhur diqqatga sazovor joylariga tashrif buyurish kabi keng turdagi turistik xizmatlarni taqdim etadilar. Mexmonlar yaxshi dam olishi, aqliy va jismoniy kuchini tiklashi, salomatligini mustahkamlashi, O'rta Osiyo va O'zbekistonning mahalliy madaniyati bilan tanishishi, bayram, ko'ngilochar yoki sport dasturlari va tadbirlarida ishtirok etishi, ko'rgazma va yarmarkalarga tashrif buyurishi, kundalik va maishiy buyumlarni shuningdek, noyob mahsulotlar va suvenirlarni xarid qilishi mumkin.

Bundan tashqari respublikamizda yil sayin xalqaro standartlarga javob beradigan butun mavsumiy dam olish maskanlari ko'payib bormoqda. Bo'stonliq tumanidagi "Amirsoy", "Chimyon" va "Beldersoy", Qiziltepa tumanidagi To'dako'l, Jizzax viloyatidagi Aydarko'l sohillarida joylashgan dam olish maskanlari, "Bukhara Desert Oasis & Spa" sayyohlik klasteri va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, O'zbekistonda sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish va yaxshi dam olish imkonini beradigan sanatoriylar mavjud. Ular butun inson organizmning faoliyatini davolash va yaxshilash uchun tabiiy vositalar bilan mashhur bo'lgan, tabiat qo'ynida joylashgan, qulay turar joy, sifatli taom va yaxshi dam olishni taklif etishi mumkin bo'lgan kurort hududlarida joylashgan. Toshkent, Jizzax, Surxondaryo va respublikamizning boshqa viloyatlaridagi sanatoriylar shular jumlasidandir.

Mana shunday maqtovg'a arzigulik ishlar natijasida 2023-yilda O'zbekistonga 7 mln nafarga yaqin chet el fuqarosi turistik maqsadlarda keldi. 2023 yilda mamlakatimizga kelgan xorijiy turistlarning 80,7 foizi qo'shni davlatlar, 11,5 foizi qolgan MDH davlatlari hamda 7,8 foizi boshqa davlatlar hisobiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, turistlarning o'rtacha qolishi 4-5 kunni tashkil etdi va 2022 yilga (3 kun) nisbatan 1,5 baravarga ortdi. Bu esa mamlakatimizda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir. Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha ham bir qator amaliy choralar ko'rildi. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida 15 mln. nafar aholi sayohatga chiqdi va hududlar bo'ylab 21 mln. tashrif uyushtirildi. Ijtimoiy ko'mak sifatida 1,1 ming nafar imkoniyati cheklangan shaxs va 570 ming nafar yoshlar sayohatga chiqarildi. Turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd. 143,5 mln. dollarni tashkil etdi, bu 2022 yilga nisbatan 1,3 barobar oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, 2023 yilda 810 ta yangi turoperator va turfirma faoliyati yo'lga qo'yildi, turizm va unga yondosh sohalarda 70 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi, 183 ta mehmonxona, 215 ta hostel, 356 ta oilaviy mehmon uyi ishga tushdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan raqamlarlarga qo'shimcha sifatida mamlakatimizda turizm salohiyatini oshirish bo'yicha yangi tizim joriy qilinadi.

Jumladan,

- har bir viloyatning «tashrif qog'ozi» ishlab chiqiladi, turistik mavsum uzaytiriladi;
- Toshkent shahri hamda viloyatlarimizdagi aeroport, vokzallarda turizm bekatlari tashkil etiladi.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida tadqiq etishning statistik, guruhlash usullaridan foydalanildi.

3. Mavzuga doir adabiyotlar tahlili



Mavzuga oid ma'lumotlar prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda 2024 yilning 20 noyabr sanasida bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi, "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07. 2023 yildagi 238-sonli "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan foydalanildi, shuningdek, wikepediya, travel.uz, kun.uz, gazeta.uz saytlari, davlat statistika agentligi ma'lumotlari bilan boyitildi.

4. Tahlil va natijalar

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan va bajarilgan amaliy ishlar natijasida mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar soni yil sayin ortib bormoqda.(1-jadval)

1-jadval. 2024 yilning yanvar-centyabr oylarida mamlakatimizga turistik maqsadlarga kelgan chet el fuqarolari.²

<i>№</i>	<i>Mamlakatlar</i>	<i>Chet el fuqarolarini soni</i>	<i>Jami O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari (% larda)</i>
1	Tojikiston	1,6 mln nafar;	28,6
2	Qirg'iz Respublikasi	1,6 mln nafar;	28,6
3	Qozog'iston	1,1 mln nafar;	19,6
4	Rossiya	609,7 ming nafar;	10,9
5	Turkmaniston	120,4 ming nafar;	2,1
6	Turkiya	84,3 ming nafar;	1,5
7	Xitoy	50,4 ming nafar;	0,9
8	Hindiston	48,6 ming nafar;	0,8
9	Janubiy Koreya	32,6 ming nafar;	0,5
10	Italiya	30,3 ming nafar;	0,5
11	boshqa davlatlar	311,9 ming nafar	5,5
	Jami	5588200	

2-jadval. 2024 yilning yanvar-avgust oylarida mamlakatimiz fuqarolari turistik maqsadlarda borgan davlatlar.³

<i>№</i>	<i>Mamlakatlar</i>	<i>Mamlakati miz fuqarola Rini soni</i>	<i>Jami O'zbekistonliklar Brogan davlatlar (% larda)</i>
1	Qirg'iz Respublikasi	1913,6 ming nafar;	47,0
2	Tojikiston	797,6 ming nafar;	19,6
3	Qozog'iston	640, ming nafar;	15,7
4	Rossiya	194,7 ming nafar;	4,7
5	Turkiya	157,7 ming nafar;	3,8
6	Saudiya Arabistoni	111,9 ming nafar;	2,7
7	BAA	81,4 ming nafar	2,0
8	Misr	27,7 ming nafar	0,6
9	Quvayt	16,7 ming nafar	0,4
10	Janubiy Koreya	14,9 ming nafar;	0,3
11	boshqa davlatlar	112,1 ming nafar	2,7
	Jami	4068300	

² Statistika agentligi ma'lumotlari

³ Statistika agentligi ma'lumotlari



Xulosa o'rnida, Mamlakatimizda turizm sohasining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Turizmni yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va kelajakdagi istiqbollar haqidagi tahlillar ushbu sohaning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, "O'zbekiston – 2030» strategiyasida nazarda tutilgan turizmni rivojlantirishga oid vazifalar aholi daromadlarini oshishi, yangi ish o'rinlarini yaratilishi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024 yilning 20 noyabr sanada bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi.
3. "O'zbekiston – 2030» Strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 238-sonli. 27.07. 2023 yil.
4. Internet ma'lumotlari (wikipediya, travel.uz, kun.uz, gazeta.uz saytlari)